

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA QO'SHNI
MAMLAKATLAR BILAN ALOQALAR TARIXIGA BIR NAZAR**

Begmuratov Dilxushbek Dilmuratovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

"Xalqaro munosabatlar" fakulteti

2-bosqich talabasi

E-mail: dilxushbekbegmuratov@icloud.com

Annotatsiya: Amir Temur asos solgan ulkan imperiya O'rta Osiyo tarixida davlatchilik rivoji, aholining ijtimoiy himoyasi va qonun ustuvorligi o'rnatilishidagi poydevorining mustahkamligiga hissa qo'shgan. Ayniqsa Buyuk ipak yo'li doirasidagi davlatlar bilan savdo iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalar ahamiyatliligi nuqtayi nazaridan salmoqlidir. Bu aloqalarning muntazam olib borilishi ikkala tomon davlatlari va xalqlarining taqdirida muhim rol o'yagan. Ushbu maqolada ana shunday aloqalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: temuriylar, diplomatik, madaniy aloqalar, Buyuk ipak yo'li, davlatchilik rivoji, ijtimoiy himoya, qonun ustuvorligi

Annotation: The huge empire founded by Amir Temur contributed to the development of statehood, social protection of the population and the establishment of the rule of law in the history of Central Asia. Trade with the countries of the Great Silk Road is especially important in terms of the importance of economic, cultural and diplomatic relations. The regular conduct of these contacts played an important role in the fate of the countries and peoples of both sides. This article is about such connections.

Key words: Timurids, diplomatic, cultural relations, Great Silk Road, development of statehood, social protection, rule of law

Аннотация: Огромная империя, основанная Амиром Темуром, способствовала развитию государственности, социальной защите населения и утверждению верховенства закона в истории Центральной Азии. Торговля со странами Великого Шелкового пути особенно важна с точки зрения важности экономических, культурных и дипломатических отношений.

Регулярное проведение этих контактов сыграло важную роль в судьбах стран и народов обеих сторон. Эта статья о таких подключениях.

Ключевые слова: Тимуриды, дипломатические, культурные связи, Великий Шелковый путь, развитие государственности, социальная защита, верховенство закона.

Sayyoramizning qaysi qismi yoki tarixning qaysi davri bo'lishidan qat'iy nazar, unda mavjud davlatlar o'zining mustahkamligini ta'minlash, tinchligini asrash, iqtisodiyotini yuksaltirish uchun o'zining qo'shni davlatlari bilan aloqalarni kuchaytirishga harakat qilgan.

Dunyoning turli mamlakatlarida taniqli davlat va jamoat arboblari, olimlar va adiblar o'z ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ijodiy faoliyati davomida buyuk ajdodlarimiz, xususan, Sohibqiron Amir Temurning jahon sivilizatsiyasi va madaniyati rivojiga qo'shgan munosib ulushini yuksak e'tirof etib keladi. Haqiqatan ham, Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe tutmaydi. Sohibqiron o'z poytaxti bo'lmish Samarqandni yer yuzining madaniy-me'moriy va ilmiy-ma'naviy markazlaridan biriga aylantirgan. Buyuk ajdodimizning eng muhim fazilatlaridan biri shuki, u zot bundan olti asr avval davlatlararo manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o'z sultanati yorqin istiqbolini ta'minlashning muhim omili ekanini teran anglagan. Shu bois, Yevropa va Osiyon bog'lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomonidan – Xitoy, Hindiston, ikkinchi tomonidan – Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan aloqa o'rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan. Mamlakatimiz olimlari va xorijlik mutaxassislar tomonidan ilmiy asosda e'tirof etilganidek, Amir Temur tarixda o'z davrining eng mohir diplomati sifatida ham chuqur iz qoldirgan. Sohibqiron buyuk davlat arbobi sifatida o'z maqsadlariga erishishda diplomatiyaning tinch yo'li va harbiy tadbirlarni mohirona qo'shib olib borgan. Amir Temur barpo etgan buyuk sultanat o'sha davrdan boshlab nafaqat qo'shni mamlakatlar va ularning podsholarini, balki uzoq yurtlar hukmdorlarini ham o'ziga jalb etib kelgan[1].

Amir Temurning tashqi siyosat borasidagi faoliyatiga taalluqli juda ko‘p voqealar shuni ko‘rsatadiki, bu ulug‘ zot biron daqqa bo‘lmasin siyosiy hodisalar tizginini nazardan qochirmagan va bu borada tinmasdan mexnat qilgan. U nafaqat o‘z poytaxti Samarqandda, balki bepoyon imperiyaning qayerida bo‘lmasin, har vaqt chet el elchilarini qabul qilgan, unga atrof mamlakatlardan uzuksiz suratda xabarlar kelib turgan. Umuman, Amir Temur davrida aloqa vositalari izchil va puxta tashkil etilgan edi. “Amr qildimki, deydi Temur o‘z “Tuzuklar”ida, mingta tezyurar tuyu mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tezyurar piyodani (chopar) yetib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarxadlarning xabarlarini, qo‘shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqea, kor-xol Yuz bermasdan burun chora va ilojini qilaylik...”[2].

U harbiy yurishlar vaqtida ham yo‘l-yo‘lakay yon-atrodan kelgan elchilarini qabul qilgan, o‘z vassallarining o‘ziga bo‘lgan sadoqatini sinab ko‘rgan va mustahkamlash choralarini amalga oshirgan, hatto uzoq mamlakatlar bilan do‘stona aloqalar masalalarini ham hal etib ketavergan. O‘sha vaqt sharoitida bu tabiiy hol edi, albatta. Chunki chet el vakillari Sohibqironni Samarqandda kutib turolmas, uning shaxsan o‘zi yechadigan muammolarga esa hech kim aralasholmas edi. Masalan, Hindiston safari vaqtida Kobul yaqinidagi Durinda Amir Temur huzuriga Temur Qutlug‘ Ug‘lon, Amir Idiku, Hizrxo‘ja O‘g‘lon elchilar kelib, Shomiyning yozishicha, o‘z xo‘jalarining quyidagi mazmunda bitilgan nomalarini topshiradi: "Bizlar hammamiz Sohibqironning bandalari, xizmatkorlari va tarbiyalarini topgan kishilarmiz. Agar bundan ilgari muxolifat tirkog‘i ixlosimiz Yuzini tirkagan bo‘lsa, endi biz aql oynasida uning aybini ko‘rdik va oyog‘imizni u (ixtilof) maqomidan tortdik. Agar xalifalik panohi bo‘lmish hazrat avf qilsalar, bundan keyin bandalik ko‘chasidan chetga qadam qo‘ymaymiz va itoat ostonasidan boshimizni ko‘tarmaymiz"[2]. Sohibqiron ularni avf etadi va "xisravona tuhfalar bilan sarafroz" ketib, qaytishlariga ijozat beradi. Bu yerda bo‘lib o‘tgan yig‘inga yon-atrofdagi mamlakat va hukmdorlardan kelgan elchilar bilan bir qatorda uzoq Do‘g‘u Mo‘g‘ul (Ulug‘Yurt)ning chingiziy hukmdori Temur Qutlug‘ning maxsus vakili, Xitoy

imperatorining elchisi Tayzi O'g'lon ham o'z odamlari bilan yetib keladilar. Boshqalar qatorida Amir Temur ularni ham katta xushnudlik bilan kutib oladi. Ushbu anjumanga tashrif buyurganlar odatga muvofiq katta sovg'a-salomlar bilan kelgan edilar. Sohibqiron elchilarga o'z navbatida qimmatbaho tuhfalar ulashadi. Yig'indagilarni ayniqsa Fors viloyati voliysi amirzoda Shayx Nuriddinning Amir Temurga keltirgan qimmatbaho sovg'a-salomlari qattiq hayratga soladi. "Atrof (diyorlar)dan kelgan elchilar deb yozadi. Nizomiddin Shomiy bu haqda hikoya qilar ekan, masalan, Xitoy mamlakatidan elchi bo'lib kelgan Tayzi O'g'lon va Temur Qutlug'ning elchilari ham shu majlisda hozir bo'lib, u qimmatbaho sovg'alarga taajjub ko'zi bilan tikilardilar. Sohibqiron hazratlari u tuhfalardan elchilarga sovg'alar ulashdi» [3].

Amir Temur avlodlari ham Buyuk ipak yo'lini rivojlantirish maqsadida jiddiy harakatlar qilganlar. Ular Xitoy bilan tinchlik bitimlari ham tuzishgan. Masalan, 1388-1500-yillar davomida Toshkent, Samarcand, Xuroson, Sheroz, Hirot. Isfahon kabi shaxarlardan 120 dan ortiq elchi guruhlari Xitoyga borgan. Ularning ko'pchiligi o'rta hisobda 8-10 kishidan iborat bulgan[4]. Ayrim elchilar guruhiga 200 kishi atrofida savdogarlar qo'shilib borgan. Savdogarlar Xitoyga ot, tuya, eshak kabi chorva mollari, qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlar, dorivlar va har xil mahalliy hunarmandchilik maxsulotlarini olib borishgan. Xitoydan esa, asosan, ipak mato, chinni idishlar, choy, ravoch va dorivorllar olib kelingan. Manbalarda ko'rsatilishicha, shu zamonda Min sulolasi Xitoydan olib kelinadigan molar ko'lmini cheklab qo'ygan. Ayrim mahsulotlarni, jumladan metalladan yasalgan qurollarni maxsus ruxsatsiz Xitoydan olib ketish man etilgan [5]. Sohibqiron Amir Temur 1389-yili bir necha bor yurushlardan so'ng, Mo'g'ulistonni o'z davlati tarkibiga kiritgach, Movarounnahrdan Xitoyga boradigan savdo yo'llari xavf-xatardan holi bo'ldi, Amir Temur davlati bilan Xitoy o'rtasida elchilik va savdo aloqalari yo'lga qo'yildi. Shu davrdan boshlab yana qadimiy Buyuk ipak yo'li orqali savdo karvonlari qatnovi muntazam tus oldi. Bu esa Amir Temur va Temuriylar davlatining siyosiy va iqtisodiy mavqeyini oshishi uchun muhim omil bo'ldi.

Xitoy solnomalarida 1388-1398-yillarda ikki davlat orasida 9 marta elchilar bordi keldi qilgani qayd etilgan. Amir Temur tomonidan asos solingan xalqaro diplomatik aloqalar uning avlodlari davrida ham davom etdi. Shohrux Mirzo (1405-1447) davrida esa yanada kengaydi. Ibn Arabshohning yozishicha, Samarqandga chet mamalakatlardan oltin va kumush, xususan, Xurosondan madanlar; Hind va Sinddan yoqut, olmos; Xitoydan atlas, yashin toshi, mushk va boshqa mollar olib kelingan.

Yevropa mamalakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar ichida farang gazmollari alohida ajralib turgan. Samarqanddan chet mamlakatlarga xususan, Rusiya, Tatariston, Sibirga, asosan arzon narxli ip matolar, duxoba, shoyi, qog'oz, quruq meva, guruch paxta va kalava iplar chiqarilgan. Chet davlatlar bilan o'zaro savdo-sotiqlik kengaytirishda Temuriylarning qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Sohibqiron Amir Temur tarixda o'ziga xos takrorlanmas buyuk siymo bo'lган. U qurgan, kuchli tayanchga ega bo'lган davlatda ilm-fan, san`at, me`morchlik rivojlandi, chegaralar daxlsizligi ta`minlandi, tinchlik hukm surib, savdo-sotiq gullab yashnadi. Mazkur aloqalar asnosida Samarqand xalqaro savdo-sotiq markaziga aylanib, mamlakatning Buxoro, Qarshi, Termiz, Toshkent kabi ko'hna va boqiy shaharlari o'zining yangicha qiyofasiga ega bo'ldi. Chet el savdogarlarining tez-tez kelib turish orqali shaharlarda yangi hayot kirib kelib, aholining turmush-tarzi yaxshilandi. Barcha hudularda qurilish ishlari olib borilib, Temur davlatining buyukligini dunyoga namoyon etdi. Uning hukmronligi davrida Buyuk ipak yo'li bo'y lab karvonlar xavfsiz tarzda qo'shni mamlakatlar bilan savdo olib borib, davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti uchun hissa qo'shgan.

Bir so'z bilan aytganda Sohibqiron Amir Temur tuzgan davlat O'rta Osiyo mintaqasi va Yevrosiyo hududi davlatlarining birgalikdagi rivoji uchun muhim halqa vazifasini o'tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Bo'riyev Omonulla. Temuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo. Toshkent. 1997-yil, 98-b.
2. O'zME. Birinchi jild. Edvard Rtveladze. Toshkent, 2000.
3. Mamayusupov O.B., Bozorov Q.D. (2022). Buyuk ipak yo'li-muloqot va hamkorlik yo'li. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (1), doi: 10.24412/2181-2454-2022.
4. Mannonov B.S. O'zbek diplomatiyasi tarixidan'' Tarixiy ocherklar va lavhalar, Toshkent – 2003.
5. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
6. Begaliyev T., Normamatova M. Amir Temur va temuriylar davri aloqalari. "MIRZO ULUG'BEK – BUYUK MUTAFAKKIR OLIM VA DAVLAT ARBOBI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 2024-YIL 14-15 MAY.